

“KO‘RMADIM” DONI ZOKIROV MUSIQASI ALISHER NAVOIY G‘AZALI

*Fozilova Mushtariy
Andijon davlat pedagogika institutu talabasi*

Annotatsiya: "Kòrmadim" - o‘zbek adabiyotining yorqin namunasidir. Asar, o‘z qahramonlarining ichki kechinmalari, muammolari va hayotidagi murakkab vaziyatlar orqali inson ruhining chuqur qatlamlarini ochib beradi. Yozuvchi, yurak sirlari, sevgining murakkabligi va kashfiyotlar bilan to‘lgan hayat tafsilotlariga e’tibor qaratadi

Kalit so‘zlar: Kòrmadim, yirik ijod, san’atkor, meros, madaniyat.

**"KO‘RMADIM" MUSIC BY DONI ZOKIROV
GHAZAL BY ALISHER NAVOI**

Fozilova Mushtariy Student at Andijan State Pedagogical Institute

Abstract: "Ko‘rmadim" is a brilliant example of Uzbek literature. The work reveals the deep layers of the human soul through the internal emotions, challenges, and complex situations of its characters. The author focuses on the secrets of the heart, the complexity of love, and the details of life filled with discoveries.

Keywords: Ko‘rmadim, major work, artist, heritage, culture.

«КЎРМАДИМ» (МУЗЫКА ДОНИ ЗАКИРОВА, ГАЗЕЛЬ АЛИШЕРА НАВОЙ)

*Фозилова Муштарий
Студентка Андижанского государственного
педагогического института*

Аннотация: «Кўрмадим» — яркий образец узбекской литературы. Произведение раскрывает глубокие пласти человеческой души через внутренние переживания своих героев, их проблемы и сложные жизненные ситуации. Автор акцентирует внимание на тайнах сердца, сложности любви и деталях жизни, наполненной открытиями.

Ключевые слова: Кўрмадим, великое творчество, артист, наследие, культура.

O‘zbekiston xalq artisti, sozanda, dirijor, murabbiy, jamoat arbobi, kompozitor Doni Zokirov ajoyib qo‘sishiq, romans, musiqali drama, balet, simfonik va xalq

cholg‘ulari orkestri uchun bastalagan musiqiy asarlari bilan o‘zbek musiqa madaniyatini boyitdi.

Doni Zokirov 1914-yil 28-dekabrda Samarqand shahrida tug‘ildi. U bolaligidan musiqaga qiziqdi. 1926-yil o‘rta ta’lim mакtabiga o‘qishga bordi va maktabdagi musiqa to‘garagiga qatnashdi. Nay, dutor, g‘ijjak chalishga qiziqdi. Mashhur san’atkor Muhiddin Mavlonovdan o‘zbek va tojik xalq merosini va ijrochilik sirlarini o‘rgandi. 1929-yilda Samarqanddagi N. N. Mironov rahbarligidagi musiqa va xoreografiya ilmiy tadqiqot institutiga o‘qishga kirdi. 1929—1935-yillari Respublika musiqali drama teatrida sozanda bo‘lib ishladi. Mazkur teatmi tashkil qilgan ulug‘ san’atkor Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim, Usta Olim Komilovlardan saboq oldi va birga ishladi. 1936-yilda Toshkentda O‘zbekiston Davlat filarmoniyasi ochildi va shu ansamblga konsertmeyster lavozimiga ishga taklif qilindi, keyinchalik musiqa rahbari bo‘lib tayinlandi. 1940—1948-yillari Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida, so‘ngra O‘zbekiston Davlat radioeshittirish qo‘mitasi qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestrida dirijor oo‘lib ishladi.

1940—1942-yillari Toshkent Davlat konservatoriyaning tayyorlov kursida o‘qidi, lekin urush tufayli o‘qishni 1953-yili bitirdi. O‘zbek ashula va raqs ansamblida badiiy rahbar bo‘lib faoliyat ko‘rsata boshladи. 1957-yili O‘zbekiston radioeshittirish qo‘mitasi qoshida O‘zbek xalq cholg‘u asboblar orkestriga bosh dirijor va badiiy rahbar lavozimiga tayinlandi.

1934-yilda birinchi yirik ijodi Z. Fatxulinning «G‘unchalar» pyesasi uchun bastalagan musi- qasidir. U ilk ijodiy yutug‘idan keyin qo‘sinq va ashulalar yaratdi. Jumladan: «Ona orzusi», «Zafar topib», «01 qasos», «Jangda bardam bo‘l» kabi vatanparvarlik mavzusidagi qo‘sinqlar yozdi. Alisher Navoiyning «Orazi» va «o‘rtanur» g‘azallariga fortepiano jo‘rligida qo‘sinqlar, simfonik orkestr uchun suita, O‘zbek xalq cholg‘ulari ansambliga III qismli «Mehnat fronti» nomli suita, «Orzigul» va «Yoriltosh» spektakllariga musiqa bastaladi. D. Zokirov musiqali sahna asarlar yaratishga katta e’tibor berdi. «So‘nmas chiroqlar», «Dalada bayram», «Vatan qirg‘oqlari», «Yoshlikda bergen ko‘ngil», «Hayot mash’ali», «Mening jannatim», «Shahzoda va yetim qiz» musiqali dramalarini yaratdi.

Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri sahnasida «Oynisa» baleti, «Zaynab va Omon» operasi tomoshabinlarga havola etildi. Quyidagi «Amirlikning yemirilishi», «Qutlug‘ qon», «Yor- yor» kinofilmlariga musiqalar, simfonik orkestr uchun «Hamza» nomh poema yaratdi. Alisher Navoiy g‘azallariga bastalagan «Ko‘rmadim», «Ey sabo», «Bo‘lmasa», «Ayb etmangiz», Turob to‘la she’riga «Bulbul» nomli romanslari simfonik orkestr jo‘rligida mashhur bo‘lib ketdi. Yuzdan ortiq ashula, ommaviy xor qo‘sinqlarini yaratdi. Bularga «o‘zbekistonim», «Tinchlik qo‘sing‘i», «Paxtakor diyor», «Hayot gulshani» kabilar misol bo‘la oladi. O‘zbek mumtoz musiqa namunalarini qayta ishlab, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri, yakka

cholg‘ular va orkestrga moslash- tirdi. Bular orkestr uchun: «Yovvoyi Chorgoh», «Fig‘on», «Qaytarma», «Cho‘li Iroq», «Farg‘onacha», «Savti navo», «Mirzadavlat», «Nasrulloyi», «Tasnifi dugoh», «Ufori navo», «Rajabiy», «Jazoir». Bolalar uchun «Sayohat — rohat» «Kungaboqar», «Oppoq otim», «Kapalak va handalak», «Bog‘da pishdi, uzumlar», «Yangi yilim — yaxshi yilim», «Kitob mening do‘stimsan», «Ko‘ylagim», «Bolalar valsi», «Baxtiyorlar qo‘shig‘i», «Olma» qo‘shiqlariga kuy bastaladi.

Doni Zokirov O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, O‘zbekiston xalq artisti faxriy unvonlariga sazovor bo‘ldi. Orden, medallar va faxriy yorliqlar bilan mukofotlandi.

Ko`rmadim

A.Navoiy g`azali

D.Zokirov musiqasi

Andante

6

11

Kim - ga qil - - - dim bir va - vo - - -
Ko'r - ga - zib yuz meh - ri - ning

15

kim - yuz - ja - fo - - - sin ke'r - ma - dim.
dar - du - ba - lo - - - sin ke'r - ma - dim.

19
Kim - ga bo - - - shim - ni - fi - do,

23
qil - dim - ki bo - - - shim qss - di - g's,

27
Har - ta-raf - - - dat yuz to - man,

31
ti - gi - ja-ro sin ko? - ma - dim.

The musical score consists of five staves of music for piano and voice. The piano part is in the bass and treble staves, while the vocal part is in the soprano staff. The lyrics are written in Korean, with some words underlined. The score includes measures 33, 35, 39, 43, 47, and 51.

Measures 33-35: The piano accompaniment features eighth-note chords in the bass and eighth-note patterns in the treble. The vocal line is silent.

Measures 39: The vocal line begins with "Kim - ga ko'ng - - - lim ay - la-di," accompanied by eighth-note chords in the piano.

Measures 43: The vocal line continues with "muh - ru + mu-hab - - bat fo - shi - kim ___".

Measures 47: The vocal line concludes with "Har_ va-fo - - - -".

Measures 51: The piano accompaniment features eighth-note chords in the bass and eighth-note patterns in the treble.

Musical score for piano and voice, page 166. The score consists of six staves of music. The top two staves are for the voice, with lyrics in Russian and Kazakh. The bottom four staves are for the piano. The vocal parts are in G major, while the piano parts are in E minor.

Staves 31-32: The vocal part begins with "gu yuz ja-fo" followed by a piano section with eighth-note chords.

Staves 33-34: The vocal part continues with "sin ko't ma - dim" and the piano part features eighth-note chords.

Staves 35-36: The vocal part begins with "Ey Nu-vo" and the piano part features eighth-note chords.

Staves 37-38: The vocal part continues with "iy tov - ba an" and the piano part features eighth-note chords.

Staves 39-40: The vocal part begins with "din qil - ma - dim" and the piano part features eighth-note chords.

Staves 41-42: The vocal part continues with "shayx o li - ds" and the piano part features eighth-note chords.

67
Kim bu ish - - - da dayr pi - ni - - ning ja - vo -
68
72
sin ko - ma - dim.
73

Kimga qildim bir vafo, kim yuzm jafosin ko'rmasdim
Ko'rgazib yuz mehrining dardu balosin ko'rmasdim.

Kimga boshimni fido qildimki, boshim qasdiga,
Har tarafdan yuz tuman, tig'i jafosin ko'rmasdim.

Kimga ko'nglim ayladi, mehru - muhabbat foshikim,
Har vafoga yuz jzfo, aning jafosin ko'rmasdim.

Ey Navoiy tovba andin, qilmadim shayx olida,
Kim bu ishda dayr pirining rizosin ko'rmasdim.
(Kimga qildim bir vafo, kim yuzm jafosin ko'rmasdim.)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Milliy Enstiklopediyasi. T., 2004 y. 31-b
2. O‘zbekiston Milliy Enstiklopediyasi. T., 2004 y.548-b
3. Ishoq Rajabov. “Maqomlar”. T., 2006 y.246-b
4. Yunus Rajabiy. “Shashmaqom II Rost” T., 1969 y.112-b